



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

BOLALARDA KASBIY QIZIQISHNING RIVOJLANTIRISH VA KASBGA TAYYORLASH

Asilova Sanobar¹

Qo'qon Universiteti

KEYWORDS

bolalik, kasbiy tanlov, kelajak kasb, ichki ehtiyoj, kasbiy qiziqish, kasbga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, shaxsiy qiziqish.

ABSTRACT

Kasb tanlash inson hayotidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois to'g'ri kasb tanlovi zaruriy masala sifatida qaraladi. Mazkur maqolada bolalarda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish va bolalarni kasbga tayyorlash borasida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15756273](https://doi.org/10.5281/zenodo.15756273)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Rivojlanib borayotgan davrda zamon talablariga mos kadrlarni topish va ularni kasbga tayyorlash masalasi muhim hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda har bir insonning o'z qobiliyatiga mos, ijtimoiy foydali va iqtisodiy samarador kasbni egallashi katta ahamiyatga ega. Sababi kelajak kasbi orqali inson kamolatga erishadi, jamiyatda o'z o'rnini topib yuksalib boradi. Shu boisdan hamkasb egallah jarayoni bolalik davridan boshlanadi. Bolalarda kasbiy qiziqishni shakllantirish va ularni kelajak kasbiga tayyorlash — nafaqat ota-onalar, balki maktab, pedagog va jamiyat zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Bolalik kezlaridan boshlab har bir insonning jamiyatdagi kattalar tomonidan kasbga yo'naltirib boriladi. Bu jaraonda albatta kasbiy qiziqishni hisobga olish zarur. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri bu professional ma'lumot hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar, maktablarda esa ustozlar ko'magida bola kasblar dunyosining qanchalik xilma-xilligini, ularning har biri o'ziga xosligini tushunishi kerak. Shunga ko'ra, bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim. Bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib rivojlantirish va ularni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasblar bilan tanishtirib borish

¹ Qo'qon Universiteti katta o'qituvchisi

bolani o'z vaqtida mustaqil hayotga jasorat bilan kirishi o'z kasbiy faoliyat yo'lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi

Kasbiy qiziqish nima va u qanday shakllanadi?

Kasbiy qiziqish — bu bolalarning turli kasblarga nisbatan qiziqishi, ularga bo'lgan ishtiyoqi va bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyoji sifatida namoyon bo'ladi. Bu qiziqish quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- **Oilaviy muhit:** Ota-onaning kasbi, ularning munosabati va bolaga beradigan tarbiyasi muhim rol o'ynaydi.
- **Atrof-muhit:** Bolaning yashash joyi, unga ta'sir qilayotgan odamlar, ommaviy axborot vositalari.
- **Ta'lim tizimi:** Maktabda o'tiladigan fanlar, kasbga yo'naltirilgan darslar, sinfdan tashqari faoliyatlar.
- **Shaxsiy qobiliyat va qiziqishlar:** Bola o'zini qaysi sohada sinab ko'rmoqchi bo'lsa, shu yo'nalishga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

Bolalarda kasbiy qiziqishning shakillanish jarayonlarida albatta ularga e'tibor qaratish lozimdir. Bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish orqali boladagi qobiliyatlarni yuzaga chiqishiga erishish mumkin. Boladagi qobiliyatga qarab kasbiga yo'naltirish ishlari amalga oshiriladi. Psixologlar fikriga ko'ra bolalardagi kasbga bo'lgan qiziqishni kuzatish orqali aniqlab olish mumkin. Qaysi o'yin yoki mashg'ulotni tez-tez o'ynashi, qaysi mavzularda ko'proq savol berishi, bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanishini kuzatib bolalardagi kelajak kasbga bo'lgan moyillikni aniqlash mumkin va shu orqali ularni kasbga yo'naltirib boriladi. Bolalar bilan o'tkazilgan suhbat, savol-javoblar ham ulardagi kasbiy qiziqishni aniqlashga yordam beradi. Qiziqishlarni aniiqlab olgach bolalardagi kasbiy qiziqshni rivojlantirib borish mumkin.

Bolalarda kasbiy yo'nalishni quyidagi bosqichlar orqali rivojlantirish mumkin

1. Erta yoshdagi tanishuv (3-6 yosh): Bolalar o'yin orqali turli kasblar haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladilar. Masalan, shifokor, o'qituvchi, quruvchi kabi kasblarni rolli o'ynlarda sinab ko'radilar.
2. Boshlang'ich sinf davri (7-10 yosh): Bolalar maktabda o'zining qobiliyatini aniqlab boradi. Darslarda va mashg'ulotlarda har xil faoliyat turlariga qiziqishi paydo bo'ladi.
3. O'rta mакtab davri (11-14 yosh): Bu davrda bola o'zining shaxsiy qiziqishlarini chuqurroq tushunadi. Kasblar haqida ko'proq bilimga ega bo'lish, tajriba orttirish istagi kuchayadi.
4. Yuqori sinf davri (15-18 yosh): Bola mustaqil ravishda kasb tanlash qarorini qabul qila boshlaydi. Bu bosqichda kasbiy yo'nalish bo'yicha chuqurlashtirilgan darslar, amaliyotlar muhim ahamiyatga ega.

Kasbga tayyorlashning samarali usullari

- **Kasbga yo'naltiruvchi testlar va suhbatlar:** Psixologik testlar yordamida bolaning qiziqish doirasi va qobiliyati aniqlanadi.
- **Kasblar olamiga sayohatlar:** Turli sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar bilan uchrashuvlar, zavod-fabrikalarga, tibbiyot muassasalariga tashriflar orqali real

tasavvur hosil qilish.

- Qo'shimcha to'garak va kurslar: Texnologiya, dizayn, informatika, sport yoki san'at yo'nalishida to'garaklar orqali o'zini sinab ko'rish imkoniyati.
- Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onaning qo'llab-quvvatlashi va yo'l-yo'riq ko'rsatishi bolaning to'g'ri kasb tanlashida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbek xalqi azal-azaldan kasb-hunari, mehnati, halol va pokligi bilan dunyoga tanilib kelgan. Ortga nazar tashlab biz ota-bobolarimizning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishi, kasb-hunar orqasidan halol kun kechirib farovon hayotda yashaganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan, bolalardagi kasbiy qiziqishlarini shakillantirish va ularni qo'llab-quvvatlash, to'g'ri yo'naltira olish ishlarini kattalar tomonidan olib borilishi bolalar kelajagi uchun poydevor yaratadi. Har bir bola o'z iste'dodini to'g'ri yo'naltira olsa, jamiyatimizda o'z kasbini seuvuchi va unga fidokorlik bilan yondashuvchi avlod voyaga etadi. Bu esa mamlakat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'ladi. Shunday ekan bojalarda kasbiy qiziqishni rivojlantirish va ularni keljak kasbga tayyorlab borish har bir katta avlodning muhim vazifasi bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Asilova, S. X. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZIMLARI
2. Asilova, S., & Abdulxaqov, N. (2024). MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB-HUNAR TANLASH MUAMMOLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM. *Interpretation and researches*.
3. Xatamboyevna, A. S. (2024). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YORDAM. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 7(1), 16-20.
4. Xatamboyevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA 'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARINI IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. *O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(17), 344-350
5. Arapovna, Y. L. F., & Xatamboyevna, A. S. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA KASBIY QIZIQISH MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI. *Kokand University Research Base*, 120-122.